

*TERMIZ DAVLAT UNIVETSITETI*  
*OZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI*  
*AMALIY FILOLOGIYA TALIM YONALISHI*  
*1-KURS 223-GURUH TALABASI*  
***ISMOILOVA ZUHRANING***  
*MATN TAHRIRI FANIDAN YOZGAN MAQOLASI*

***ANNOTATSIYA:*** *Ushbu maqolada matn haqida ya'ni matnning turlari, tarkibi va uni tahlillash va tahrirlash ishlari haqida so'z boradi.*

***Kalit so'zlar:*** *Matn, tahlil, tahrir, diologik matn, morfologik matn, mikro matn, makro matn, tavsifiy, adabiy, ilmiy, siyosiy, badiiy.*

Avvalambor matn sarlavhasidagi so'zlar bilan tanishib olsak. Matn so'zi lotincha “mato, birikma” so'zlaridan olingan bo'lib ma'lum moddiy tashuvchiga bog'langan inson fikri va turli xil gaplar yig'indisi hisoblanadi. Tahrir arabcha xarrara so'zidan olingan bo'lib ozod qilmoq, qutqarmoq degan manoni anglatadi.

Endi asosiy masalaga keladigan bo'lsak biz hozir matn turlari haqida gaplashamiz. Tilimizda matnning juda ko'p va har xilcha turlari mavjud. Va ulardan bir nechtasi haqida fikr yuritamiz. Matn tuzilishiga ko'ra ikki xil bo'ladi. Mikro matn va Makro matn. Bular o'z nomlaridan ko'rinib turibdiki Mikro matn kichik yani bir necha gaplardan tuzilgan Makro matn esa ko'proq gaplardan tuzilgan yani hajm jihatidan ham katta bo'lgan matn hisoblanadi. Matn ikki xil turga ma'lumotnoma va ijodiy-tavsifiy turlariga bo'linadi. Ma'lumotnoma matnida voqea hodisalar haqida oddiy axborot beriladi, ijodiy-tavsifiy matnda yozuvchi tomonidan ijodiy ravishda bayon etilgan voqea hodisa yoki ma'lumotning ijodiy-tavsifiy bayonidir. Matn ikki xil ko'rinishda bo'ladi. Yani Diologik va Monologik. Diologik matn ikki va undan kishi o'rtasidagi har xilcha fikr almashinuvi

hisoblanadi. Monologik matn tavsifiy matn deb ham yuritiladi. Monologik matn yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqea hodisa tavsifi va ma'lumot bayonidir. Maqola, insho ham Monologik matnning turi hisoblanadi. Shunday qilib matn turlari haqida gaplashib oldik. Ko'rinib turibdiki matnning turlari anchani tashkil qiladi. O'zbek tili boy til deganlaridek tilimizda har bir tushunchaning turlicha ma'nolari har xil turlari bor.

Endi tahlil va tahrir masalasiga kelsak, Tahlil so'ziga dastlabki tarif Yevropa adabiyotshunosligida 19 asrning ikkinchi yarmida berila boshladi. Tahlil bu narsa hodisalarni mohiyatini qonuniyat va boshqa jihatlardan tekshirish va o'rganish deyiladi. Tahlilning ham ilmiy, badiiy va yana boshqa har xil turlari mavjud, va har birining o'ziga yarasha ma'no ifodalari bor. Tahrir yuqorida aytilganidek xarrara so'zidan olingan bo'lib ozod qilmoq, qutqarmoq degan ma'nolarni anglatib, matbuotda bosish, radio, televideniyan o'qish, ko'rsatish va boshqa maqsadlar uchun moslangan matnning tahririyat hodimi tomonidan ishlanish jarayoni hisoblanadi. Tahrir Adabiy, Ilmiy, Siyosiy kabi turlarga bo'linib o'zaro farqlanadi. Asarning mazmuni ilmiy va siyosiy tahrir hisoblansa, uning shakli ya'ni kompozitsiyasi va uslubi adabiy tahrir hisoblanadi. Tahrir amaliyotda yagona uslubda bo'ladi ya'ni yozuvchining o'ziga xos bo'lgan uslubini saqlagan holda bo'ladi. Albatta har bir kishining o'zining gapirish, biror kishi bilan so'zlashish usuli bo'ladi shuning uchun amaliyotda yozuvchining o'zidan kelib chiqqan holda uslub tanlanadi.

Xulosa qilib aytganda matnning o'ziga yarasha turlari bor. Qaysidir ma'noda ko'p ham deyish mumkin. Albatta shunga yarasha ularning har birining o'zining bajariladigan vazifasi bor. Masalan mana shu yozilgan maqolani olib turlarga ajratadigan bo'lsak matn turiga ko'ra mikro matn hisoblansa, matnning ko'rinishiga ko'ra esa monologik (ya'ni tavsifiy) matn hisoblanadi. Buni monologik matnga olishimizning sababi bu matnda faqat yozuvchining fikri bayon qilinyapti ya'ni mening fikrim. Agar biz diologik matn turiga olganimizda bu yerda ikki yoki undan ortiq kishining suhbat bo'liahi kerak bo'lardi. Lekin bu yerda faqat bir kishining fikri yozilganligi uchun monologik matnga olindi va bu yuqorida ham

takidlangandi ya'ni “Maqola va Insho monologik matnga misol bo'loladi”.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

Tohirov Z.T Kitob muharriri // O'zbekiston matbuoti, 2010.4-son. – 50- 51-b.

Tohirov Z.T, Mirzayeva N. Tilga e'tibor – elga e'tibor // O'zbekiston matbuoti, 2010. 1-son- 28- 29-b.

Tohirov Z. T.Spetsializatsiya net, rezultat est // Biznes – vestnik Vostoka, 2009, 15-dekabr.